

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRZAYEV ANVAR SATTORALIYEVICH

**O‘ZBOSHIMCHALIK JINOYATINI TERGOV QILISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09. – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Mirzayev Anvar Sattoralievich

О‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishni takomillashtirish..... 3

Мирзаев Анвар Сатторалиевич

Совершенствование расследования преступлений, связанных с самоуправством 23

Mirzayev Anvar Sattoralievich

Improving the investigation of crimes related to arbitrariness 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

MIRZAYEV ANVAR SATTORALIYEVICH

**O‘ZBOSHIMCHALIK JINOYATINI TERGOV QILISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.09. – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq
va sud ekspertizasi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1487 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.akad.mvd.uz-ilmiy-kengash) va «ZIYONET» Axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
huzuridagi Tergov departamenti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-avgust soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (99871) 265-22-52; faks: (998971)265-23-50; e-mail: info@akad.mvd.uz).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1596-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68. Tel.: (99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 9-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 9-avgustdagi 21-raqamli reestr bayonnomasi).



[Signature]
A.S. Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

[Signature]
A.D. Xusanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori, dotsent.

[Signature]
Sh.A. Kulmatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligidagi muammolarning mavjudligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining shaffof emasligi, fuqarolarning huquqiy ongi yetarli darajada emasligi, davlat organlarida faoliyat olib borayotgan mansabdor shaxslarning huquqiy bilimlarining kamligi, fuqarolarning davlat organlariga qilgan murojaatlari lozim darajada ko‘rilmagan qolayotganligi, murojaatlar yuzasidan tushuntirishlar berilmayotganligi, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasayishiga, o‘zlarining buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini o‘zboshimchalik bilan himoya qilishga harakat qilishiga sabab bo‘lmoqda. E‘tiborlisi, o‘zboshimchalik jinoyatining uchdan bir qismi rasmiy ro‘yxatga olinmaydi, ro‘yxatga olinganlarining salkam yarmi ma‘muriy huquqbuzarlik sifatida baholanmoqda. Shuningdek o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda haqiqiy holat o‘rganilmasdan tergov organlari tomonidan noto‘g‘ri malakalanmoqda.

Jahonda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarning oldini olish, jinoyatlarni to‘la, xar tomonlama holisona, sifatli tergov qilish, ularni to‘g‘ri malakalash, jinoyatning asl kelib chiqishi sabablarini aniqlash, jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli jazo tayinlashga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, shaxsning haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni o‘zboshimchalik bilan amalga oshirishi, tergov organlariga shaxsning harakatlarini malakalashda muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Xususan tergov organlari jinoyat sodir etgan shaxsda mulkni talon-toroj qilish qasdi bor yo‘qligini aniqlamay turib, uning harakatlarini o‘g‘rilik, talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik, bezorilik kabi normalar bilan malakalab xatoga yo‘l qo‘ymoqda. Bu esa shaxslarning huquqlari buzilishiga, sansalorlikka, jinoyat ishini bir nechta instansiyalarda qayta ko‘rib chiqishga, ortiqcha harajat hamda vaqt sarflanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois o‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni tadqiq etish, o‘zboshimchalik jinoyatining boshqa jinoyatlardan farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy hamda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmunini ayrim fuqarolar noto‘g‘ri tushunib, amaldagi qonunlarni mensimasdan, haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni o‘zboshimchalik bilan amalga oshirishi holatlari yildan yilga ko‘paymoqda. Jumladan, Respublikamizda o‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha 2022-yilda 207 nafar, 2023-yilda 271 nafar, 2024-yilda 368 nafar shaxs jinoyat javobgarlikka tortilgan¹. Shuningdek dastlabki tergov organlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni inobatga olib sudlar tomonidan 2024-yilda ko‘rilgan 61 481 ta jinoyat ishining 7,6 foizi (4672 ta)² sudlar tomonidan bevosita o‘zboshimchalik jinoyatiga qayta malakalanib jazo tayinlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki dastlabki tergov organlari tomonidan jinoyatlarni malakalash, ularni tergov qilish, haqiqatni aniqlash hamda isbotlash borasida qonun buzilishi holatlari mavjud. Bu esa o‘zboshimchalikdan jabr ko‘rgan shaxslarning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentining ma‘lumotnomasi.

² <https://stat.sud.uz/assets/uploads/criminal/pdf/criminal-2024-full.pdf>.

huquqlari, hayoti, sogʻligʻi, shaʼni, qadr-qimmatini va mol-mulkini muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, buzilgan huquqlarni tiklash lozimligidan dalolat beradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2023-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2024-yil 10-iyundagi PF-89-son “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquqi va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora- tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmonlari, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 3-sentyabrdagi PQ-4818-son “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” va ustuvor yoʻnalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzboshimchalik jinoyatini tergov qilish mavzusi alohida oʻrganilmagan, lekin koʻpchilik milliy va xorijiy olimlarning diqqat markazida boʻlib kelgan. Jumladan, mamlakatimiz huquqshunos olimlaridan B.A. Azizxodjayev, Gʻ.A. Abdumajidov, M.D. Botayev, Z.F. Inogʻomjonova, Sh.X. Inomjonov, Sh.A. Kulmatov, D.M. Mirazov, B.B. Murodov, B.A. Moʻminov, A.J. Parpiyeva, B.A. Rajabov, M.A. Rajabova, A.K. Rasulev, S.M. Raxmanova, B.N. Rashidov, B.A. Saidov, U.A. Tuxtasheva, G.Z. Toʻlaganovalar oʻzlarining ilmiy tadqiqot ishlarida muayyan darajada oʻrgangan. Mazkur tadqiqotlarda oʻzboshimchalik jinoyatini tergov qilishda isbotlanishi lozim boʻlgan jihatlar, oʻzboshimchalik boʻyicha tergovga qadar tekshiruv harakatlarini oʻtkazishning umumiy jihatlari yoritilgan³.

Shuningdek oʻzboshimchalikning jinoiy-huquqiy jihatlari Sh. Abduqodirov, B. Ahrorov, P. Bakunov, R.Kabulov, Y.M. Karaketov, U. Mirzayev, A.A.Otajanov, M.H. Rustamboyev, E. Turgʻunboyev, Gʻ. Ermatov, A.S. Yakubovlar⁴, tomonidan oʻrganilgan. M.A. Avliyakovning mavzuga oid monografiyasi chop etilgan⁵. X.A. Qurbonova “Oʻzboshimchalikning jinoiy-huquqiy jihatlari”ni tadqiq qilgan⁶.

Rossiyalik T.V. Averyanova, R.S. Belkin, Ye.V. Vitman, Yu.V. Grigoreva, F. Gribejkin, Yu.G. Koruxov, A.I. Marsev, S.F. Milyukov, G.F. Polenov, Ye.R. Rossiyskaya, I.Titenkov va boshqa olimlar⁷ tomonidan oʻzboshimchalik uchun

³ Ushbu olimlarning ishlari dissertatsiyaning asosiy qismida keltirilgan.

⁴ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida berilgan.

⁵ M.A. Avliyakulova. *Ўзбошимчалик учун жавобгарлик. Монография// Масъул мухаррир: Қ.Р. Абдурашулова–Т.: ТДЮУ, 2015. - 135 б.*

⁶ X.A. Qurbonova *Ўзбошимчаликнинг жиноий-хукукий жихатлари юридик фанлар бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси Т.: Судьялар олий мактаби 2023. – 184 б.*

⁷ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatida berilgan.

jinoiy javobgarlik hamda o'zboshimchalikni tergov qilish masalalari tadqiq qilingan. Yuqoridagi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'zboshimchalikning jinoyat-huquqiy tushunchasi, mohiyati, xususiyatlari, belgilari, tadqiq qilingan bo'lsada, biroq ushbu jinoyatni tergov qilish metodikasi, tergov jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozimligi, o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan jihatlar kompleks tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari faoliyatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari" (2022-2026 yy.) mavzudagi loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilish hamda fosh etishga oid ilmiy qarashlarni o'rganish asosida qonunchilik normalarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zboshimchalik jinoyatini huquqiy tahlil qilish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

o'zboshimchalik jinoyatining kriminalistik jihatlarini tahlil qilish;

o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda tergovga qadar tekshiruv organlari bilan o'zaro hamkorlikni tahlil qilish;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishga doir xalqaro tajribani qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilish metodikasini takomillashtirish istiqbollari belgilagan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishga oid olimlarning ilmiy qarashlari, o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, sud-tergov amaliyoti materiallari, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti, ushbu sohaga oid yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlardan iboratdir.

Tadqiqot olib borishda sotsiologik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, mantiqiy (analiz, sintez), ilmiy manbalarni kompleks tadqiq qilish, statistik, sud-tergov amaliyoti materiallari tahlili, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, ma'lumotlar tahlili, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish usullaridan foydalanilgan.

o'zboshimchalik jinoyati yuzasidan tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo'yiladigan narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar tegishli bayonnomalarda aniq ko'rsatilishi kerak, bunda narsaning yoki hujjatning yoxud elektron ma'lumotlarning egasiga bayonnoma nusxasi yoki uning ko'chirmasi topshirilib, tilxat olinishi, ishga aloqasi bo'lmagan narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar qonuniy egasiga darhol

qaytarilishi kerakligi, agar ishga taalluqli bo'lmagan dalillar tergov organining va (yoki) sudning tasarrufida qolgan bo'lsa, ular qayta tiklanmaydigan tarzda yo'q qilinishi lozimligi, fuqarolar saqlashi taqiqlangan narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar yo'q qilinishi yoxud ularni saqlashga hamda tasarruf etishga vakolatli bo'lgan muassasalarga yoki tashkilotlarga berilishi lozimligi asoslantirilgan;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari o'z tasarrufida bo'lgan elektron ma'lumotlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga o'z tashabbusi bilan taqdim etishga haqli ekanligi asoslantirilgan;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda insonning sha'ni va qadr-qimmatini, daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi asoslantirilgan;

jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi, ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanishi asoslantirilgan;

“O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

“haqiqiy huquq”, “faraz qilingan huquq” va “jiddiy ziyon” tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan;

jinoyat qonunchiligining “o'zboshimchalik” deb nomlangan normasini yangi tahrirda qabul qilish zarurati asoslantirilgan;

jinoyat qonunchiligiga “Shaxsni o'zboshimchalik bilan sudning hukmisiz jazolash” deb nomlangan yangi jinoiy javobgarlikni belgilovchi norma kiritish zarurati asoslantirilgan;

o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish tartibi, shaxslardan tushuntirish xatlari olishda ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar, tayinlanadigan ekspertizalar, ekspertlar oldiga qo'yiladigan namunaviy savollar ro'yxati ishlab chiqilgan;

o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha jabrlanuvchi, guvoh va ayblanuvchiga berilishi zarur bo'lgan savollar ketma-ketligi ishlab chiqilgan;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish, ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, olib qo'yish, tintuv va boshqa tergov harakatlarini o'tkazish taktikasining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

o'zboshimchalik jinoyatining kriminalistik jihatlari o'rganilib, o'zboshimchalik sodir etilishi mumkin bo'lgan joylar ro'yxati tuzilgan;

o'zboshimchalik jinoyatlari bo'yicha tergov organlarining tezkor-qidiruv organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limlari bilan hamkorligini takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan;

i organ xodimlari orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov, 255 dan ortiq jinoyat ishlari

hamda sud hukmlarini o'rganilish orqali asoslangan. Mavzuga oid statistik ma'lumotlar tahlili umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan hamda

iqilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflardan mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishda, jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi fanlari nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek "Jinoyatlarni

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qilmishni jinoyat-huquqiy normalar asosida kvalifikatsiya qilish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan qonun loyihalari hamda bu borada qonun hujjatlar amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan bir qator nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qilishda ifodalanadi.

O'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'zboshimchalk jinoyati yuzasidan "tergov yoki sud harakatlari jarayonida olib qo'yiladigan narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar tegishli bayonnomalarda aniq ko'rsatilishi kerak, bunda narsaning yoki hujjatning yoxud elektron ma'lumotlarning egasiga bayonnoma nusxasi yoki uning ko'chirmasi topshirilib, tilxat olinishi, ishga aloqasi bo'lmagan narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar qonuniy egasiga darhol qaytarilishi kerakligi, agar ishga taalluqli bo'lmagan dalillar tergov organining va (yoki) sudning tasarrufida qolgan bo'lsa, ular qayta tiklanmaydigan tarzda yo'q qilinishi lozimligi, fuqarolar saqlashi taqiqlangan narsalar, hujjatlar va elektron ma'lumotlar yo'q qilinishi yoxud ularni saqlashga hamda tasarruf etishga vakolatli bo'lgan muassasalarga yoki tashkilotlarga berilishi lozim"ligiga oid taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1003 Qonunining 1-moddasi 6-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 4-fevraldagi 3/dn-13-son dalolatnomasi) Ushbu takliflarning inobatga olinishi o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda dalillarni qayd etish, aybni isbotlashda samarali vosita ekanligiga xizmat qilgan;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda "fuqarolar, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari o'z tasarrufida bo'lgan elektron ma'lumotlarni tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan organning mansabdor shaxsiga, surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga o'z tashabbusi bilan taqdim etishga haqli" ekanligiga oid taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1003 Qonunining 1-moddasi 26-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 4-fevraldagi

3/dn-13-son dalolatnomasi) Ushbu takliflarning inobatga olinishi o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda dalillarni qayd etish, aybni isbotlashda samarali vosita ekanligiga xizmat qilgan;

o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda "insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas"ligiga doir taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 26-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarining 2023-yil 26-dekabrda 02/6-09/31-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlari Konstitutsiyaviy norma darajasida himoya qilinishi ta'minlashga xizmat qilgan;

jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishi, ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanishi haqidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi"ning 28-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarining 2023-yil 26-dekabrda 02/6-09/31-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi fuqarolarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlari Konstitutsiyaviy norma darajasida himoya qilinishi ta'minlashga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 1 ta xalqaro, 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy maqola (ulardan 3 tasi xorijiy nashrlarda), 7 tasi ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiya tarkibi kirish, yetti paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ishning o‘rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy izlanish davomida foydalanilgan usullar, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobativasi, amaliyotga joriy etilishi, ular bo‘yicha nashr etilgan ishlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**O‘zboshimchalik jinoyatining nazariy-huquqiy tavsifi**” deb nomlangan bo‘lib, unda avvalo o‘zboshimchalik jinoyatining huquqiy tahlili va rivojlanish tarixi, kriminalistik jihatlari, o‘zboshimchalik tushunchasining nazariy hamda huquqiy tahlili, o‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha olimlarning qarashlari ilmiy-tahlil qilinib, olimlarning fikrlariga tadqiqotchining munosabati bayon etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “*O‘zboshimchalik jinoyatining tushunchasi va huquqiy tahlili*” deb nomlangan bo‘lib, unda o‘zboshimchalik jinoyatining mazmun mohiyati, ijtimoiy xavflilik darajasi, “*O‘zboshimchalik*” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi, “*haqiqiy huquq*”, “*faraz qilingan huquq*” o‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha olimlarning qarashlari, o‘zboshimchalikning boshqa huquq sohalari bilan o‘zaro aloqadorligi hamda halqaro hujjatlar tahlil qilingan.

Xususan dissertant ushbu paragrafda huquqshunos olimlar M.A.Avliyakulova, B.Axrarov, M.I.Bajanov, G.F.Polenov, M.Rustambayev, V.V.Stashis, I.Titenkov, X.A. Qurbonova va boshqa olimlarning o‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha ilmiy qarashlari bilan ilmiy bahsga kirishib, ularni qiyosiy tahlil qilish asnosida, shuningdek amaliyot xodimlarida “haqiqiy yoki faraz qilingan huquq” tushunchalari bo‘yicha aniq tasavvur shakllanmaganligi tufayli, ijtimoiy so‘rovlar natijasini tahlil qilgan holda mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida “*haqiqiy huquq*”, “*faraz qilingan huquq*” tushunchalariga mualliflik ta‘rifini ishlab chiqqan. Shuningdek, tadqiqotchi ilmiy qarashlarni tadqiq qilgan holda ***o‘zboshimchalik*** deganda haqiqiy yoki faraz qilingan huquqni qonunda va boshqa xujjatlarda nazarda tutilgan tartibga rioya qilmagan holda amalga oshirishga qaratilgan hatti harakatlar majmui degan ilmiy xulosaga kelingan.

Tadqiqotchi o‘zboshimchalik jinoyatini fuqarolik qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilib, quyidagi shartlarga rioya etgan xolda amalga oshirilgan o‘zini-o‘zi himoya qilish qonuniy hisoblanadi degan xulosaga kelgan: 1) *faqat haqiqiy huquq himoya kilinishi lozim*; 2) *o‘zini-o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirish bilan yetkazilgan zarar haqiqiy yoki oldi olingan zarardan xaddan tashqari ko‘p bo‘lmasligi kerak*; 3) *o‘zini-o‘zi himoya qilish usullari ularni amalga oshirish uchun zarur harakatlar chegarasidan chetga chiqmasligi lozim*.

Dissertant o‘zboshimchalik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan qonun normalarining rivojlanish tarixini taxlil qilib, uni quyidagi bosqichlarga ajratadi: *birinchi bosqich* 1926-yilgacha bo‘lgan davr. Bu davrda mamlakatimiz xududida jinoyat qonunchiligi kodifikatsiya kilinmagan, o‘zboshimchalik uchun jinoiy javobgarlik masalasi asosan shariat koidalari asosida ko‘rib chikilgan va xal qilingan; *ikkinchi*

boskich – 1926-yilda 1960-yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu davrda jinoyat kodeksida o‘zboshimchalik uchun javobgarlik nazarda tutilgan alohida norma belgilanganligi bilan ahamiyatli; *uchinchi bosqich* – 1960-1993-yillardan iborat bo‘lib – bu davrda 1959 yilgi jinoyat kodeksida amalda bo‘lgan va 1926-yildagi normadan farq qiluvchi qator normalar kodeksda aks ettirilganligi (jumladan, yetkazilgan zararining xajmi va miqdori bo‘yicha shartlar belgilanganligi) sababli alohida boskich sifatida ajratildi; *to‘rtinchi bosqich* – 1994-2009-yillar bo‘lib, bu davrda mustaqil O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi yangitdan qabul qilindi va uning 229-moddasida o‘zboshimchalik uchun javobgarlik nazarda tutildi; *beshinchi bosqich* 2009-2018-yillarni qamrab olgan davr bo‘lib – bu davrda o‘zboshimchalikka nisbatan yangi institut hisoblangan yarashuv institutini qo‘llash imkoni yaratildi, shuningdek, jinoyat qonunida mavjud ayrim bo‘shliqlar va amaliyotda yuzaga kelayotgan noanikliklar bartaraf etildi; *oltinchi bosqich* 2018-yildan hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan davr bo‘lib, bu davrda o‘zboshimchalikka nisbatan jazo tayinlashda yengillik berilib sudlanuvchiga muqobil jazo tayinlanishi mumkin bo‘lib, jazo tizimi liberallashtirildi.

Birinchi bobning “*O‘zboshimchalik jinoyatining kriminalistik jihatlari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida G‘.A.Abdumajidov, R.A.Alimova, A.Yu.Golovin, A.N. Kolesnichenko, B.B.Murodov, D.M.Mirazov, A.D.Xusanov, A.O.Sharafutdinovlarning jinoyatlarni kriminalistik tavsifida jinoyatni sodir etish usuli, jinoyat izlarini aniqlash mexanizmlari, ehtimoliy jinoyatchining kriminalistik belgilari, ehtimoliy jabrlanuvchining kriminalistik belgilari, jinoyatning tipik predmeti to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda jinoyat holatining o‘ziga hos xususiyatlarini inobatga olgan holda tergovni rejalashtirish, jinoiy harakatlarni to‘liq va har tomonlama isbotlash uchun dastlabki zaruriy shart hisoblanishi haqidagi bildirgan fikrlari bilan ilmiy bahsga kirishilib, o‘zboshimchalik jinoyatining kriminalistik tavsifi, uning elementlarini belgilash bo‘yicha tadqiqotchining munosabatlari bayon etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan o‘zboshimchalik jinoyatining kriminalistik tavsifining asosiy elementlari sifatida quyidagilarni kiritish tavsiya etilgan: o‘zboshimchalik jinoyatini sodir etish usuli; o‘zboshimchalikni sodir etgan shaxsning ijtimoiy mavqei (sudlangan sudlanmaganligi, yoshi, jinsi, bandligi); o‘zboshimchalikni sodir etgan shaxsning motiv va maqsadi; o‘zboshimchalikni sodir etgan shaxsning jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishi, uni sodir etishi va yashirish vaqtida qoldirilgan izlarni aniqlash mexanizmi va xususiyatlari; jabrlanuvchining o‘zboshimchalik jinoyati sodir etilishidan oldingi va keyingi hatti-harakatlari; o‘zboshimchalik sodir etilgan joy, vaqt va holat; o‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda yuzaga keladigan tipik tergov vaziyatlari.

Mamlakatimizda so‘nggi besh yilda o‘zboshimchalik jinoyatining sodir etilishi ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, o‘zboshimchalikni sodir etgan shaxslarning soni ortib borayotganligi salbiy holat sifatida baholangan. Jumladan, o‘zboshimchalik jinoyatini sodir etgan shaxslar 2021-yilda 235 nafar 2022-yilda 207 nafar, 2023-yilda 271 nafar, 2024-yilda 368 nafar, 2025-yilning birinchi yarmida 157 nafar shaxsni tashkil etgan⁸. Tadqiqotchi ushbu statistik ma’lumotlar tahlili asosida so‘ngi yillarda o‘zboshimchalikni bir guruh shaxslar tomonidan sodir etish holatlari ortib borayotganligini, bu holat o‘zboshimchalikni ijtimoiy xavfi oshib borayotganligini asosli tanqid qilgan. Ayniqsa

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentining ma’lumotnomasi.

ushbu ko'rsatkich birgina 2024-yilda Qashqadaryo viloyatida 26 ta, Toshkent viloyatida 24 ta, Farg'ona viloyatida 17 ta, Andijon viloyatida 10 ta sodir etilganligi, shuningdek bevosita o'zboshimchalik bilan bog'liq holda sodir etiladigan yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallab olish, belgilangan taqiqlarni buzgan holda binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash kabi jinoyatlar oshib bormoqda. O'zboshimchalik jinoyatining sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar sifatida quyidagi omillarni keltirish mumkin: jamiyatda yurish turish qoidalariga va odob-ahloq normalariga amal qilmasdan o'zboshimchalik bilan harakatni amalga oshirish (57 foiz), alkohol va shaxsning aql-idrokiga ta'sir qiluvchi moddalar ta'siri ostida sodir etish (8 foiz); fuqarolarning huquqiy ongi pastligi (32 foiz); davlat organlarining faoliyatiga ishonmasdan o'zboshimchalik bilan harakatlarni sodir etish (15 foiz). Mazkur omillarni inobatga olgan holda tadqiqot ishida tergov organlari tomonidan o'zboshimchalikning oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jinoyat ishi hujjatlariga ko'ra o'zboshimchalik jinoyatining bugungi kunda eng ko'p uchrayotgan holatlarini tahlil qilgan holda ushbu jinoyatni sodir etish maqsadiga qo'ra: a) *mulkni olib qo'yish bilan bog'liq o'zboshimchalik* (65 foiz); b) *jabrlanuvchini aybdor shaxs foydasi muayyan harakatlar qilishga undash bilan bog'liq o'zboshimchalik harakatlari* (11 foiz); v) *aybdorning fikriga ko'ra, jabrlanuvchining xatti-harakatlari uchun qasos olishni ko'rsatish bilan bog'liq o'zboshimchalik* (12 foiz) tarzida tasniflagan⁹.

Tadqiqotchi o'zboshimchalik jinoyati sodir etilayotgan hamda etilishi mumkin bo'lgan jinoyat sodir etilgan joylarni tadqiq va tahlil qilib: a) *jabrlanuvchining yashash xonadonida* (78 foiz); b) *jabrlanuvchining ish xonasida* (5 foiz); v) *jinoyat sodir etgan shaxsning yashash xonadoni* (21 foiz); g) *jamaot joylarida (ko'chada, kafeda, hiyobonlarda)* (32 foiz) kabi turlarga tasniflagan. Shuningdek o'zboshimchalikni sodir etish vaqtiga ko'ra: a) *kunduz kuni (06-00 dan 22-00 gacha)* (76 foiz); b) *tungi vaqtda (22-00 dan 06-00 gacha)* (24 foiz) kabi turlarga tasniflagan. O'zboshimchalikni sodir etgan shaxslar ishtirokiga ko'ra: a) *yakka tartibda* (78 foiz); b) *bir guruh shaxslar tomonidan* (22 foiz); jinoyat sodir etgan shaxslarning jinsi hamda ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib: a) *erkaklar tomonidan sodir etiladigan o'zboshimchaliklar* (87 foiz); b) *ayollar tomonidan sodir etiladigan o'zboshimchaliklar* (13 foiz); v) *muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etiladigan o'zboshimchaliklar* (11 foiz) ekanligi¹⁰ ma'lum bo'lgan. Dissertatsiyada o'zboshimchalik jinoyatini tergov amaliyoti hamda uning o'ziga xos xususiyati tadqiq etilib, o'tkazilishi lozim bo'lgan tergov va protsessual harakatlarning ketma-ketligi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zboshimchalik jinoyati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlari o'tkazishdagi muammolar tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari, o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha dastlabki va kelgusi tergov harakatlarini o'tkazish ketma-ketligi hamda o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda tergovga qadar tekshiruv organlari bilan o'zaro hamkorlik masalalari tahlil qilingan.

⁹ Tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishlarining tahlili.

¹⁰ Tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishlarining tahlili.

Diisertatsiyaning ikkinchi bob birinchi paragrafi “*O‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari*” deb nomlangan bo‘lib, tadqiqotchi ushbu paragrafda M.Dj. Botayev, B.T. Bezlepkin, jinoyatga oid ariza xabarlarini ko‘rib chiqib, yakuniy to‘xtamga kelish jarayonidir degan

Shuningdek izlanuvchi sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun *a) amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksi talablari asosida hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish; b) gumon qilinuvchi, jabrlangan shaxs va hodisaga bevosita shohid bo‘lgan guvohlar va boshqalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatib o‘tilgan talablar va shartlar asosida batafsil tushuntirish xati olish; v) sudga oid ekspertizalar tayinlash va xulosasini olish (ish holatidan kelib chiqib, sudga oid tibbiy, xatshunoslik, tuproqshunoslik, baholash va boshqa ekspertizalar); g) jabrlangan shaxsdan o‘ziga yetkazilgan moddiy zarar ko‘lami qanchaligi, gumon qilinuvchi shaxsga nisbatan da‘vosi bor-yo‘qligi haqida tilxat olish; d) to‘plangan hujjatlar asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atish yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risida qaror chiqarish masalasini hal qilish kabi tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi.*

Tadqiqotchi o‘zboshimchalik jinoyati to‘g‘risidagi xabarlar bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish yuzasidan quyidagi konseptual algoritmi ishlab chiqqan: jinoyat to‘g‘risidagi ariza, xabarni qabul qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish; tergov-tezkor guruhini yig‘ish va hodisa sodir bo‘lgan joyga borish; jinoyat haqida xabar bergan shaxsdan, shuningdek hodisaning boshqa ishtirokchilari va guvoh (shohidlar)laridan batafsil tushuntirishlar olish; hodisa joyini ko‘zdan kechirish (identifikatsiya qilish, aniqlash va izlarini olib qo‘yish); ish holatidan kelib chiqqan holda muayyan (sudga oid tibbiy, xatshunoslik, tovarshunoslik, tuproqshunoslik, baholash va hakazo) ekspertizalar tayinlash; jabrlangan shaxsdan jinoyat to‘g‘risida batafsil tushuntirishlar olish yoki og‘zaki arizani qabul qilish; jabrlangan va jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsiga doir ma’lumotlarni topish va tizimlashtirish; jinoyat sodir etgan va jabrlangan shaxs o‘rtasidagi munosabatlar (mulkiy, ishqiy, o‘zaro kelishmovchilik va hakazo)ni aniqlash; jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki ishni qo‘zg‘atishni rad qilish yoxud ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida qaror qabul qilish.

Bugungi kunda o‘zboshimchalikka oid ariza, xabar va boshqa ma’lumotlarning qariyb yarmi hisobga olinmasdan qolmoqda. Hisobga olinganlarining yarmi ma’muriy huquqbuzarlik sifatida baholanib qolmoqda. Amaldagi qonunchilik tahliliga ko‘ra tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi jinoyat ishi qo‘zg‘atishga vakolatli emas. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida tergovga qadar tekshiruvni davomida fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlamay qolishiga sabab bo‘lmoqda. Vaholanki O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining (keyingi o‘rinda JPK deb yuritiladi) 321-moddasiga ko‘ra tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsiga jinoyat ishi qo‘zg‘atishga haqli hisoblanadi. Shu sababli JPKning

15-moddasiga *tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxsini* ham kiritish lozimligi asoslantirilgan.

O‘zboshimchalikka oid yuritilgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari, jinoyat ishlari hamda o‘tkazilgan anketa so‘rovi natijalarining tahlili asosida ushbu turdagi jinoyatlar yuzasidan aksariyat holatlarda sud-tibbiy (15 foiz); sovuq qurollar (sovuq qurollar ishlatilgan hollarda) (5 foiz); sud-biologik (7 foiz); sud-baholash (27 foiz) va sud-daktiloskopik (12 foiz) ekspertizalari tayinlanayotganligi ma’lum bo‘lgan¹¹. Biroq, ekspertlar oldiga savollar qo‘yishda sodir etilgan o‘zboshimchalik jinoyatining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmayotganligi hamda deyarli barcha holatlarda ishga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi bo‘lmagan (shablon) mazmunidagi savollar qo‘yilayotganligi asosli tanqid qilinib, tadqiqotchi tomonidan yuqorida sanab o‘tilgan ekspertiza turlari bo‘yicha ekspertlar oldiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan namunaviy savollar ro‘yxati ishlab chiqilgan.

Ikkinchi bobning “*O‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida o‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha o‘tkaziladigan dastlabki va kelgusi tergov harakatlaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Tadqiqotchi ushbu paragrafda Yu.V. Grigorevaning o‘zboshimchalik jinoyati qachon, qayerda, kim tomonidan va qanday maqsadda sodir etilganligi, qanday usulda (guruh tarkibidami yoki yakka tartibda) sodir etilganligi, yetkazilgan zararining miqdori hamda jinoyat sodir etishga qanday holatlar sabab bo‘lganligi isbotlanishi lozim degan fikriga qo‘shilmaydi, hamda izlanuvchi O.D.Allanazarov, B.B.Murodov, B.A.Rajabov, G.Z.To‘laganovalarning fikrlariga qo‘shilgan holda, o‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda quyidagilar: aybdor normativ-huquqiy hujjatda belgilangan tartibga zid bo‘lgan harakatlarni sodir etganmi; aybdor mazkur holatni qonuniy hal qilish uchun qanday normativ hujjat asosida harakat qilishi lozim edi; aybdor shaxs o‘zi e’tiroz bildirgan subyektiv huquqqa egami; jabrlanuvchi va aybdor o‘rtasida muayyan subyektiv huquq bo‘yicha bahs (nizo) mavjudligi; o‘zboshimchalik harakatlari sodir etilgan vaqt; aybdor jabrlanuvchining mol-mulkini ruxsatsiz ushlab turgan yoki boshqa mulklardan mahrum qilgan holat muddati (davomiyligi); o‘zboshimchalik harakatlari sodir etilgan joy, o‘zboshimchalikni sodir etgan shaxs tomonidan tanlangan moddiy boyliklar va boshqa narsalarni ko‘chirish va saqlash joyi; aybdor shaxslarning o‘zboshimchalik harakatlarining bevosita namoyon bo‘lganligi; jinoyat sodir etishning qanday vositalaridan foydalanilgan: hodisa sodir bo‘lgan joyga borganda, bevosita o‘zboshimchalik bilan harakat qilganda, o‘zboshimchalik obyektini musodara qilganda, ko‘chirganda va qonunga xilof ravishda ushlab turganda; jabrlanuvchiga tegishli qanday mol-mulk o‘zboshimchalikni sodir etgan shaxs tomonidan qonunga xilof ravishda olib qo‘yilgan va (yoki) shikastlangan, yo‘q qilingan; yetkazilgan mulkiy zarar miqdori; jabrlanuvchi(lar)ga nisbatan zo‘ravonlik qo‘llanganmi, zo‘ravonlik qo‘llash tahdidi bildirilganmi va qanday shaklda; aybdor(lar)ning harakatlari jismoniy va (yoki) ma’naviy zarar yetkazganmi, qay darajada; jabrlanuvchiga yetkazilgan zararining jiddiy ekanligini tasdiqlovchi dalillarning mavjudligi; o‘zboshimchalik bilan sodir etilgan harakatlarning kim tomonidan sodir etilganligi (aybdorlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari); o‘zboshimchalik bilan sodir etilgan harakatlarning ishtirokchilari soni, har

¹¹ Tadqiqot davomida o‘rganilgan jinoyat ishlarining tahlili.

birining roli va o'ziga xos harakatlari; o'zboshimchalik harakatlarini sodir etgan shaxs tomonidan jabrlanuvchiga va boshqa shaxslarga, uning fikricha, jabrlanuvchining harakatlari bilan buzilgan subyektiv huquqini tiklash shartlari sifatida qanday talablar qo'yilgan; o'zboshimchalik qilishning sabablari nimada; o'zboshimchalik harakatlarini sodir etgan shaxsning noqonuniy xatti-harakatlari uchun jinoyatni va jazolanishini istisno qiluvchi holatlar mavjudligi; o'zboshimchalik uchun jazoni yengillashtiruvchi va (yoki) og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligi (yo'qligi); aybdorni jinoiy javobgarlikdan va o'zboshimchalik uchun jazodan ozod qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar mavjudligi; o'zboshimchalik sodir etishga yordam bergan holatlar mavjudligi, shu jumladan, jabrlanuvchining qonunga xilof xatti-harakatlari nuqtayi nazaridan, ushbu jinoyatni sodir etish uchun zarur bo'lgan holatlarning mavjudligi isbotlanishi lozim degan xulosaga kelgan.

Shuningdek dissertantning fikricha surishtiruvchi va tergovchilar o'zboshimchalik jinoyati bo'yicha so'roq qilish tergov harakatida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishlari lozim:

- *gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) va jabrlanuvchi o'rtasidagi aloqalar qachon qanday boshlangan (qachon va qanday tanishgan, o'rtalarida oldindan oldi berdi harakatlari bo'lganmi, jabrlanuvchining qaysi harakati ayblanuvchini o'zboshimchalik qilishga undagan);*

- *gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) va jabrlanuvchi o'rtasidagi aloqalardan kimlar xabardor bo'lgan;*

- *gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning o'zboshimchalik harakatlarini kimlar ko'rgan va ularga nisbatan gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) qanday munosabatda bo'lgan;*

- *gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) o'zboshimchalik bilan harakat qilmaslik uchun qanday yo'l tutishi lozim edi;*

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "*O'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda tergovga qadar tekshiruv organlari bilan o'zaro hamkorlik*" deb nomlangan bo'lib, ushbu paragrafda tergov organlarining o'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda tergovga qadar tekshiruv organlari hamda boshqa organlar bilan o'zaro hamkorlik masalalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqotchi ushbu paragrafda R.S. Belkin, S.V. Vedrenseva, V.D. Zelenskiy, D.E. Karimova, Yu.I. Mironov, N.A. Xushvaktova va S.V. Shepevlarning hamkorlik jinoyatlarni tergov qilishni tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, u tergovchining boshqa organlar bilan qonunga asoslangan, maqsadlari, joyi va vaqti kelishilgan holda hamkorlik qilishdir degan fikrlari bilan ilmiy munozaraga kirishib, "*O'zboshimchalik jinoyatini tergov qilishda surishtiruvchi va tergovchining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar bilan o'zaro hamkorligi deganda – surishtiruvchi yoki tergovchining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar bilan jinoyatlarni fosh etish, aybdor shaxs(lar)ni aniqlash, u(lar)ning harakatlariga to'la va holisona baho berish, jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va sodir etilishining oldini olish maqsadida tezkor-qidiruv va kriminalistik-texnik vositalari hamda usullaridan foydalanishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi*" degan xulosaga kelgan.

Dissertant kriminalistik adabiyotlar va sud-tergov amaliyoti tahlillariga asoslanib, tergovchi va surishtiruvchining o‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishdagi tergovga qadar tekshiruv organlari bilan hamkorligini uch bosqichga bo‘lgan.

Birinchi bosqich hodisa joyiga chiqishdan oldin boshlanadi va sodir etilgan jinoyatni “issiq izi”dan ochish bilan tugaydi.

*Ikkinchi bosqich*da surishtiruvchi yoki tergovchi, tezkor xodim, xudud profilaktika inspektori va ekspert-kriminalist bilan birgalikda birinchi bosqichda olingan ma’lumotlarni tahlil qiladi.

*Uchinchi bosqich*da gumonlanuvchining shaxsi aniqlanadi va vujudga kelgan shubhalarni tasdiqlovchi yoki rad etuvchi dalillarni olish, jinoyatning barcha ishtirokchilarini, jinoyat sodir etilishiga yordam beradigan holatlar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi. Shuningdek sodir etilgan o‘zboshimchalik jinoyati o‘g‘rilik, firibgarlik, talonchilik va boshqa jinoyatlardan farqli jihatlariga aniqlik kiritiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**O‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishni takomillashtirish istiqbollari**” deb nomlangan bo‘lib, unda o‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishga doir xalqaro tajriba: qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan hamda o‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilish metodikasini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi “*O‘zboshimchalik jinoyatini tergov qilishga doir xalqaro tajriba: qiyosiy-huquqiy tahlil*” deb nomlangan bo‘lib, unda o‘zboshimchalik jinoyati bo‘yicha rivojlangan davlatlarning jinoyat hamda jinoyat protsessual qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Xususan tadqiqotchi ushbu paragrafda Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Gruziya, Bolgariya, Mongoliya, Belarus Respublikasi, Ukraina, Gretsiya, Daniya, Finlyandiya, Qozog‘iston, Shvetsiya, Angliya, Polsha, Germaniya Federativ Respublikasi, Shveysariya, Ispaniya, AQSH kabi davlatlarning qonunchiligini qiyosiy-huquqiy tahlil qilgan.

Izlanuvchi yuqoridagi davlatlarning qonunchiligini tahlil qilgan holda milliy qonunchiligimizda o‘zboshimchalik jinoyatini bir guruh shaxslar tomonidan til biriktirib sodir etilish holati mavjud emasligini tanqid qilib, sud-tergov amaliyotida bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilish holatlari mavjudligini inobatga olib milliy qonunchilikka bir guruh shaxslar tomonidan o‘zboshimchalik jinoyatini sodir etishni og‘irlashtiruvchi holat sifatida kiritishni taklif qilgan.

